

RUS TASVIRIY SAN'ATINING O'ZBEKISTON RANGTASVIRI RIVOJIGA TA'SIRI

Shoira Erkin qizi Shodiyeva

o'qituvchi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Toshkent, O'zbekiston

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-I3-4>

Annotatsiya. Maqolada Rus tasviriy san'atining O'zbekiston rangtasviri rivojiga ta'siri, rangtasvirojanrining bugungi kundagi o'ziga xos xususiyatlari, rus zamonaliv rangtasvirchi rassomlarining bugungi kundagi ijodi, rus rassomllari ijodidagi yutuqlar, milliy san'atimizning jamiyat hayotiga ta'siri va asosiysi ijodkor yoshlar, san'at ahli nigohida rus tasviriy san'atining qanday ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida. Qolaversa, portret mavzusining bugungi kundagi tasviriy ifodasiga bag'ishlanadi. Portret janrining yosh rassomlar mahoratini oshirishdagi o'rni ulkan va beqiyos, bu borada portret janrining hozirda Rus rangtasvir san'atida ancha takomillashgani va yetarlichcha e'tiborda ekanligi va inson obrazini tasviriy san'atda timsol sifatida yaratish, hozirgi kunda ham qiziqarli va dolzarbdir.

Kalit so'zlar: rangtasvir, portret, tasviriy san'at, zamonaliv rangtasvir, rus portret janri, ta'lismetodlari, portret, yosh avlod, jamiyat, yoshlar, psihologik portret, mustaqillik, ijodkor, go'zallik, shaxsiy shakllanish, qahramon, obraz.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston tasviriy san'atini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bugungi kunda zamonaliv o'zbek tasviriy san'atiga ko'plab yosh iste'dod egalari kirib kelayotgani, turli yo'naliishlarda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkorlar, xususan, rassom va haykaltaroshlar, xalq ustalari ijodida yangicha mazmun va shakl, jahon san'at maydonida munosib o'rin egallashga intilish tendensiyalari ko'zga tashlanayotganini ijobjiy baholash lozim. Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, hozirgi vaqtida tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar talab darajasida emasligi, sohaga doir normativ-huquqiy hamda moddiy-teknik bazaning mukammal emasligi, malakali kadrlar yetishmasligi bu boradagi ishlarning samarasiga salbiy ta'sir etmoqda. Ammo sohadagi yangi islohotlar kundan - kunga rivoj topib tasviriy san'at olamida yangi burilishlarni ham ochmoqda.

ASOSIY QISM

Kundan kunga zamon o'zgargani sayin, yurtimizda ham har sohada o'zgarishlarni uchratishingiz mumkin. Xususan, tasviriy va amaliy san'atning inson ongiga ta'sir etib, turli hislar uyg'otadigan, unga ma'nnaviy ozuqa beradigan va uning dunyoqarashini boyitadigan san'at turi ekanligi azaldan san'at ixlosmandlariga ma'lum. Shu sababli, tasviriy san'at sohasida ham boshqa sohalardagi kabi nafaqat o'zbek

balki xorij davlatlarining ta'lismetodlaridan va ularning ilmiy salohiyatiga ham murojaat bo'lishi tabiiy hol albatta.


Bizga san'at tarixidan ma'lumki rus tasviriy san'ati milliy san'atimiz xususan tasviriy san'atning rangtasvir janri rivojiga bevosita hissa qo'shgan desak, yanglishmaymiz. Chunki bizning ustoz rassomlarimiz, akademik va professorlarimizning aksariyat qismi Rossiyada ta'lismolib kelishgan va bu an'ana hozirda ham mavjud. Bugungi kunda ham ko'plab O'zbekistonlik talabalar turli horij davlatlariga shuningdek, Rossiyadagi I.Repin nomidagi Sankt-Peterburg davlat akademik rassomlik, haykaltaroshlik va arxitektura instituti (Российской Академии художеств)ga ham ta'lismolib shayxitgan albatta quronarli. Chunki, Rossiyadagi rassomlik akademiyasi eng qadimiya va yirik oliy san'at ta'lismuassasalaridan birdir.

Rus tasviriy san'atining bugungi kundagi eng ko'zga ko'ringan vakillari **Y.Kalyuta, V. Pesikov, N.Bloxin, I.Zorkin, I.Loginov, K.Istomin, Elena Bria, A.Tyshenko** kabi rangtasvirchi rassomlar ijodi nafaqat o'zlarini yurtida balki o'zbek tasviriy san'at vakillarida ham kuchli qiziqish va ijobjiy ma'noda o'rnak vazifasini bajarmoqda. Chunki san'at rivoji uchun soha vakillari ularning ijodidagi yutuqlarni milliy rangtasvir san'atimizga ham o'ziga xos tom ma'nodagi ta'sirini sezish mumkin va bu esa yosh rangtasvirchi rassomlar ijodiga ijobjiy tomonlama o'sishlarida yordam bera oladi. Biz bilamizki, rangtasvir inson ongi va tafakkurining kenggayishi, shaxsiy shakllanishi va kamolga yetishiga yordam beradigan tarbiya vositasini hamdir. Shu jihatdan ham Tasviriy sn'atning zamon talablariga mos tarzda yurtimizdag'i imkoniyatlar kengayishi va ijtimoiy hayotining yaxshilanish jarayoni bevosita rangtasvir janrida ijod qiluvchi rassomlarimiz asarlarida ham o'z ifodasini topmoqda.

Insonning ichki ruxiy olami bilan bog'langan holda aniq bir obraz yaratilishi portret san'ati deb yuritiladi.

Rus portret janri san'atining yorqin vakili **Yuri Vitalievich Kalyuta** (1957 yil 13-iyunda Dnepropetrovsk viloyatida tug'ilgan.) Hozirgi kunda Rossiya [Federatsiyasining](#) rassomlik va kompozitsiya kafedrasida ta'lismolib kelmoqda. U talabalik vaqtida mashhur iste'dodli rus rassomi A. A. Milnikov rahbarligidagi mahobatli rangtasvir ustaxonasini tamomlagan. Bugungu kunda ko'plab shogirdlar chiqarib, yosh avlodni madaniy didini oshirishda o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Rassom ijodida peyzajlar, natyurmortlar va janrlı kompozitsiyalarni ko'p

tasvirlagan, ammo ijodkorning o‘z uslubini yaratishida xususan uning ijodiy individualligi o‘zi yaratgan portretlar turkumida teran namoyon bo‘lganini ko‘rish mumkin: Asarlari “Qizil ustaxonada soch turmag‘i”, “Xotini bilan avtoportret” (Arlekin va Perro), “Kumush” Portret”, “Oila”, “Madonna” va boshqa ko‘plab kompozitsiyalar. Asarlar aniq o‘qiladigan kompozitsion tuzilish va qora va qizil ranglarning qarama-qarshi kombinatsiyasi bilan ajralib turadi, bu uning rasmlariga o‘ziga xos hissiyot beradi.



“U yoki bu asarim qayerdan boshlanadi, xoh u portretmi, xoh natyurmortmi, xoh janrdagi rasmimi, deb o‘ylaganimda, har doim ham aniq javob bera olmayman. Ba’zida tabiat bilan aloqa qilish, kutilmagan holat, yorug‘lik, kuzatish va hokazolardan zavqlanish, ba’zida chuqur falsafiy mulohazalar va ularni sevimli odamlar va narsalarning tasvirlari orqali ifodalash istagi paydo boladi (Yuriy Kalyuta).

Rus tasviriy san’atining bugungi kundagi yana bir o‘ziga xos vakili **Vladimir Simonovich Pesikov** (1939 yil 31 dekabrda Sankt-Peterburgda tavallud topgan.) Rossiya Rassomlik akademiyasi akademigi, Rossiya Federatsiyasi xalq rassomi. Rassom hozirda akademiyada o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor vazifasida va talabalarga dars beruvchi professor vazifasida ishlab kelmoqda. Uning ijodida ham portret, natyurmort va kompozitsiyadan tashqari ko‘proq peyzash zamонави Shahr ko‘rinishlari tasvirlarini ko‘rish mumkin. Mashhur asarlaridan “Onegada bog‘lanish” (1965), “Novgorod, Sofiya tomoni” (1969), “Kirov zavodi po‘lat ustalarining portreti” (1971), “Novgoroddagi Avliyo Sofiya sobori” (1974), “Drezden. Marina” (1976), “Florensiya. Ponte Vekkio” (1978), “1919 yil”

(1985), “Eski Ladoga. Qal‘a” (1987), “Sovuq kun” (1989), “Xitoy qishlog‘i” (1991), “Akademik dachadagi qayinlar” (1993), “Kirillo-Belozerskiy monastiri” (1995), “Sariq dengiz” (1999) va boshqalar rus rangtasvirida o‘ziga hos o‘rin egallaydi.



Vladimir Simonovich Pesikov “Rassom Medovikov N.P. portreti” 1981y. 80x110 sm., x.m.
Ushbu asarida rassom portretini mohirona tasvirlagan. Uning asarlarida koloritlar monoxrom gammasini sezish mumkin va bu unga asardagi g‘oyani ochib berishda xalal bermaydi. Uning asarlarida ko‘proq tabiatga murojaat va undan ilhom olishi ko‘p ko‘rinadi. Shu asarda ham rassom albatta tabiat bilan bir biriga bog‘liq ekanligining falsafiy yechimi ham bor.

Qolaversa, **N.Bloxin, I.Zorkin, I.Loginov, K.Istomina, Elena Bria, A.Tyshenko S. Rahmanov** va boshqa iste’dodli va taniqli rus rangtasvirchi rassomlar ijodi bugungi kunda nafaqat o‘z yurtida balki dunyo miqyosida o‘z asarlari bilan turli ko‘rgazmalar tashkil etib ma’naviy ozuqa va tasviriy san’atning jozibasini ko‘rsatmoqdalar. Ularning ijodidagi qiziqarli kompozitsion yechimlar va ranglarning o‘ziga xos gammasi ko‘rsatadiki, ularning asarlardagi kuchli poydevor bu akademik realistik maktab ekanligi va bu maktab klassik san’at an’analariga asoslanganligini anglatadi.

XULOSA

San’at insonni ma’naviy yuksaltirishning kuchli vositasi bo‘lib, uning estetik madaniyatini rivojlantiradi. Yosh avlod nigohida esa o‘zgacha bir joziba kasb etadi. Bugungi kunda xorij ta’lim texnologiyalari dasturlarini amaliyotda keng tajriba asosida qo‘llash, san’at, xususan tasviriy sana’t sohalarida bo‘lgan o‘zgarish va burilishlar, rivojlanish bosqichlarida asosiy omillar bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdirasilov S. Tolipov N. “Dastgohli rangtasvir” (O‘quv qo‘llanma) TDPU Toshkent -2008 y. 12 b
2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Калюта,_Юрий_Витальевич
3. uz.m.wikipedia.org
4. <https://www.stydai.ru/gallery/master-54/>